

## ARAB TILIDA FRAZELOGIZMLARNING TURLARI

Eshpo'latova Nargiza Gafurovna

ORIENTAL UNIVERSITETI

Lingvistika (arab tili) yo'nalishi 2-bosqich

Magistranti Toshkent, O'zbekiston.

E-mail: [nargizaeshpolatova50@gmail.com](mailto:nargizaeshpolatova50@gmail.com)

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, frazeologik birlik, lingvistika, lingvokulturologiya, ibora, frazema.

### KIRISH

Arab tilidagi frazeologizmlar tilning rang-barangligini va boyligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar – bu o'zlariga xos ma'no va tuzilishga ega bo'lgan iboralar. Frazeologizmlarning paydo bo'lishi inson tafakkuri bilan tilning leksik imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Frazeologiya - til durdonasidir. Bunda xalqning tarixi, turmushi va madaniyatining o'ziga xosliklari aks etadi. Frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo'ladi. Ingliz frazeologiyasi boy va uning tarixi uzoq. Bunda sof ingliz frazeologizmlar qatorida chetdan qabul qilingan, ya'ni internatsional frazeologizmlar ham talaygina. Arab tilida frazeologizmlarning ko'pchiligi kundalik muloqotda va adabiyotda keng qo'llaniladi. Ular tilning rang-barangligini oshiradi va ifodalar sifatini yaxshilaydi.

### ASOSIY QISM

Barcha tillarda bo'lgani kabi arab tilida ham frazeologizmlar tilni yanada boyitishga xizmat qiladigan so'z birligi hisoblanadi. Arab tilidagi frazeologik birliklarning soni juda ko'p bo'lib, xilma-xil ma'nolarga ega.

Arab tilidagi frazeologizmlar semantik jihatdan rang-barang bo'lib, quyidagi guruhlarga bo'linadi:<sup>55</sup>

تعبيرات مستحدثة – zamonaviy frazeologizmlar;

تعبيرات معربة – arablashgan frazeologizmlar;

تعبيرات تراثية – madaniy merosga oid frazeologizmlar;

تعبيرات قرآنية – Qur'oni karimda kelgan frazeologizmlar;

تعبيرات نبوية من السنة – Hadislardagi frazeologizmlar;

تعبيرات مصدرها طبي أو علمي – tibbiy va ilmiy frazeologizmlar;

تعبيرات من المجال العسكري – harbiy sohaga oid frazeologizmlar;

تعبيرات من العامة – shevaga xos frazeologizmlar;

Ushbu tasnifdan ma'lum bo'ladiki, arab tilidagi frazeologik birliklar bir belgi asosida tasniflanmagan. Tasnifda frazeologizmlarning mavzuviy (madaniy merosga oid frazeologizmlar, tibbiy va ilmiy frazeologizmlar, harbiy sohaga oid frazeologizmlar),

مصطفى أحمد قدير. التعبير الاصطلاحي - مفهومه و تصنفاته 2019 55

qo'llanish o'rniga ko'ra (Qur'oni karimda kelgan frazeologizmlar, Hadislardagi frazeologizmlar, shevaga xos frazeologizmlar), genetik jihatdan (arablashgan), tarixiylik jihatdan (zamonaviy frazeologizmlar)ga ajratilgan.

O'zbek tilida ham frazeologizmlar semantik jihatdan bir-biridan farqlanadi. O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning semantik, uslubiy, lingvomadaniy xususiyatlari, hosil bo'lishi, tuzilishiga ko'ra turlari, sinonimik, antonimik, omonimik variantlarini o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar mavjud. Shuningdek, frazeologizmlar semantik jihatdan turlarga bo'lib o'rganilgan. Xususan, X.Berdiyurov, R.Rasulov, B.Yo'ldoshev o'zbek tilidagi frazeologizmlarni ma'noviy, uslubiy xususiyatlariga ko'ra uch guruhga bo'lishgan:

- 1) leksik-frazeologik birliklar;
- 2) haqiqiy frazeologik birliklar;
- 3) frazeologik shtamplar<sup>56</sup>.

Sh.Rahmatullayev esa frazeologizmlarni semantik jihatdan frazeologik butunlik va frazeologik chatishma turlariga tasniflagan<sup>57</sup>.

Ko'rinadiki, ushbu tasniflarda frazeologik birliklar mavzuviy jihatdan tasniflanmagan. Har ikki tasnifda ham asosiy e'tibor frazeologizmlarning hosil bo'lish usuliga qaratilgan.

Arab va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni mavzuviy jihatdan ruhiy holat ifodalovchi frazeologizmlarga ham ajratib o'rganish mumkin. Arab va o'zbek tillarida frazeologizmlar xilma-xil bo'lib, ular insonning ruhiy kechinmalari: qo'rquvi, hayajoni, shodligi, quvonchi kabilarni ifodalab keladi. Xarakterli jihati shundaki, har ikki tilda frazeologizmlarning ko'proq yurak, jon so'zlari bilan hosil bo'lishi kuzatiladi.

Arab tilida قَلْبٌ (yurak) so'zi bilan hosil bo'lib, insonning ruhiy holatini ifodalovchi quyidagi frazeologizmlar mavjud. Masalan: قَلْبُهُ وَقَعَ فِي رَجْلَيْهِ (yuragi qinidan chiqib ketmoq), سَلِمَ قَلْبُهُ (yuragi toza bo'lmoq), اِنْفَطَرَ قَلْبُهُ (yuragi tilka-pora bo'lmoq), تَفَرَّخَ قَلْبُهُ (yuragi ochilmoq), حَزَنَ قَلْبُهُ (yuragi g'ash bo'lmoq), يَقَطُرُ قَلْبُهُ دَمًا (yuragidan qon oqmoq) va boshqalar.

Bulardan تَفَرَّخَ قَلْبُهُ (yuragi ochilmoq), سَلِمَ قَلْبُهُ (yuragi toza bo'lmoq) kabi ayrim frazeologizmlari insonning quvonchi, shodligini ifodalasa, اِنْفَطَرَ قَلْبُهُ (yuragi tilka-pora bo'lmoq), حَزَنَ قَلْبُهُ (yuragi g'ash bo'lmoq), يَقَطُرُ قَلْبُهُ دَمًا (yuragidan qon oqmoq), قَلْبُهُ وَقَعَ فِي رَجْلَيْهِ (yuragi qinidan chiqib ketmoq) kabi frazeologik birliklar qayg'u, qo'rquv kabi ma'nolarni anglatadi.

O'zbek tilida ham yurak, jon leksemalari ruhiy holat ifodalovchi frazeologizmlar tarkibida juda ko'p uchraydi. Masalan: Yuragi yorilmoq, yurak bag'ri qon bo'lmoq, yuragi qinidan chiqib ketmoq, yuragi g'ash bo'lmoq, jonga oro kirmoq, joni achimoq, joni hiqildog'iga kelmoq va boshqalar. Masalan, yuragi qinidan chiqib ketmoq, joni hiqildog'iga kelmoq, jon-poni chiqib ketmoq iboralarida insonning qo'rquv holati yurak,

<sup>56</sup> Berdiyurov X., Rasulov R., Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasidan materiallar. I qism.-Samarqand, 1976. 4-7b.

<sup>57</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent, 1992.

jon so‘zlari yordamida ochib berilgan. Misol: “Ana Hakimboyvachcha! Joni hiqildog‘iga kelganga o‘xshaydi,ko‘rdingmi?” Oybek “Qutlug‘ qon”.

Quyida ushbu frazeologizmlardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz:

قَلْبُهُ وَقَعَ فِي رَجَائِهِ (so‘zma-so‘z tarjimasi: yuragi ikki oyog‘iga tushib ketdi). Ushbu frazeologizm nutqda insonning ma‘lum bir sababga ko‘ra juda qattiq qo‘rqanlik holatiga nisbatan qo‘llaniladi. Frazeologizm “qalbning oyoqqa ko‘chishi” ko‘chma ma‘noda bo‘lib, u orqali yurakning tez-tez urishiga ishora qilinadi<sup>58</sup>.

Arab tilida insonning ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklar tarkibida ba‘zan قَلْبٌ (yurak) so‘zi o‘rnida رُوحٌ (jon) leksik birligi uchraydi. Masalan: الرُّوحُ تَلْهَبُ (joni yoki yuragi achimoq), الرُّوحُ تَرْتَأِحُ (joniga aro kirmoq), مَسَّ شَعَافَتِ الرُّوحِ (yuragiga og‘ir botmoq).

يَقْطُرُ قَلْبُهُ دَمًا (so‘zma-so‘z tarjimasi: yuragi qon tomchiladi). Ushbu frazemadagi يَقْطُرُ (tomchilamoq) fe‘li hozirgi-kelasi zamonda bo‘lsa-da, iborada o‘tgan zamoni ifodalaydi va “دَمًا”(qon) so‘zi bilan birikma hosil qilganda “qonamoq” ma‘nosini bildiradi. Demak, ushbu iborani umumiy ma‘noda “yuragi qonadi” deb tushunish mumkin.

إذا ذكر الموت عنده يقطر قلبه دما (أبو حامد غزالي إحياء علوم الدين)

Agar uning huzurida o‘lim eslatilsa, qalbi qonaydi. (G‘azzoliy “Ihyou ulumid din”)

Ushbu ibora ma‘no jihatidan o‘zbek tilidagi yuragi qon bo‘lmoq iborasi bilan teng. Bo‘ri polvonning yurak-bag‘ri qon bo‘ladi, ammo do‘stidan voz kecholmaydi. M.Ahmedova “Men qaytib kelaman. Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida”.

انْقَطَرَ قَلْبُهُ (so‘zma-so‘z tarjimasi: yuragi ezilmoq, tilka-pora bo‘lmoq). Ushbu ibora umumiy ma‘noda ham insonning qayg‘u holatida ekanligini, yuragi ezilib ketganligini ifodalaydi. O‘zbek tilida ham yuragi ezilmoq, yuragi tilka-pora bo‘lmoq iboralari ham aynan shu ma‘noni ifodalaydi.

Arab tilida ushbu frazeologiyani quyidagi ma‘nolarini ko‘rish mumkin:

insonning ma‘lum bir sabablarga ko‘ra qattiq siqilishi;

insonning tushkun kayfiyatda ekanligi;

bir insonning boshqa bir insonga rahmi kelishi;

O‘zbek tilida ham Joni achimoq iborasi rahmi kelmoq, achinmoq, iztirob chekmoq ma‘nolarida qo‘llaniladi. Masalan: Ruhiiy iztiroblari adog‘ida o‘zi izlagan ma‘niga yaqinlashgan Botir firqaning holatini ko‘ring: “joni achidi... tani kuydi” — “tan-joni... shodlandi”<sup>59</sup>.

الرُّوحُ تَرْتَأِحُ (so‘zma-so‘z tarjimasi: joni dam olmoq). Ushbu ibora arab tilida insonning biror bir muammodan qutilishi, qiyinchilikdan keyingi yengillik holatini ifodalaydi. O‘zbek tilida ham ushbu ibora “jon” so‘zi bilan ifodalanadi. Masalan: Joniga aro kirmoq. Bu iborada xursand bo‘lish holati ifodalanmoqda. Beshta (temir niqob tayyorlab qo‘ydim. Ertaga olib ketsanglar, azmatlarning joniga aro kirib qoladi. M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha<sup>60</sup>.

<sup>58</sup> عالء الدين فرحات حسن أبو العال الأستاذ المساعد بقسم اللغات السالفة - شعبة اللغة الروسية كلية اللسان - جامعة عين شمس. التعبيرات الصطلاحية التي تعبر عن العالم الروحي للإنسان في اللغتين العربية والروسية. ص:31. 2017.

<sup>59</sup> D.Qurbonov “Tog‘ay Murod firgoyilari” “Hurriyat gazetasi 2007”.-5b.

<sup>60</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati-Toshkent: O‘qituvchi, 1978.-96b.

مَسَّ شَغَافَتِ الرُّوحِ (so‘zma-so‘z tarjimasi: jonga yomon ta’sir qilmoq). Ushbu ibora har qanday narsani o‘ziga oluvchi pessimist inson holatini ifodalaydi. O‘zbek tilida ushbu iborani mazmun jihatdan o‘ziga olmoq, yuragiga og‘ir botmoq iboralari bilan tenglashtirish mumkin. Shuningdek arab va o‘zbek tillarida insonning ruhiy holatini ifodalovchi frazeologizmlarning soni juda ko‘p bo‘lib, turli vositalar bilan ifodalanadi. Ulardan ayrimlari eskirgan bo‘lsa, ayrimlari hamon tilda qo‘llanilib kelinmoqda.

### XULOSA

Arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlar semantikasi va lingvokulturologik xususiyatlari tahlili o‘laroq quyidagi xulosalarga kelindi:

- o‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o‘rganish XX asrning 50-yillaridan o‘rganila boshlandi va bu sohada bir qancha tadqiqotlar amalga oshirildi.
- arab tilshunosligida esa frazeologizmlar qadimiy tarixga ega bo‘lib, XII asrdan bir qancha tilshunoslar tomonidan o‘rganila boshlangan;
- arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvomadaniy jihatlari XXI asrdan o‘rganila boshlandi, biroq ushbu sohadagi tadqiqot ishlari har ikki tilda ham yetarli emas;
- arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarda ushbu til egalarining milliy urf-odat va an‘analari, nutq etiketi va dunyoqarashi turli leksik birliklar bilan o‘z ifodasi ni topadi.
- arab tilidagi frazeologik birliklarni semantik jihatdan tahlil qilish jarayonida arab xalqining mentaliteti, madaniyati, urf odat va an‘analarini o‘rganib chiqish va tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bu jarayon o‘z navbatida mazkur tildagi frazeologik birliklarni yanada chuqurroq o‘rganishga zamin yaratadi;
- arab tilidagi frazeologizmlar birikmaga teng frazeologizmlar va gapga teng frazeologizmlarga bo‘linadi. Shuningdek, ushbu tilda perifrazalar ham frazeologizm deb ataladi.
- arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlar semantik jihatdan xilma-xil bo‘lib, o‘zining tarkibiy tuzilishi bilan ajralib turadi;
- frazeologizmlar qaysi tilga oid bo‘lishidan qat’iy nazar ekstralingvistik omillar ta’sirida ham yuzaga keladi. Tillarning boyishida hamda takomillashishida o‘z o‘rniga ega til birligi sifatida qaraladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusaidov A. Frazeologizmlar – matbuot tilida ta’sirchan vosita. – Samarqand, 2001.
2. Murat Yig‘it Arapcada deyimler ve Kurani Kerimde kullanimi. -Kahramanmaras Ocak, 2015.
3. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent 2019.
4. Абдельхамид С. А. М. Фразеологизмы-соматизмы в русском и арабском языках (лингвокультурологический анализ). дисс. ... канд. филол. наук. Каир, 2017.- С.399.

5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: Едиториал УРСС, 2004. - 504 в.
6. Востоков А.Х. Русская грамматика по начертанию его же сокращенной грамматики. – СПб. – 1835. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. –Л., 1928.
7. Дж. Аби Джабер, А.В. Капшук. Арабско-русский словарь идиоматических выражений.- М.: Издательский Дом ЯСК, 2019.- С. 455.
8. Коваль В.И. Образование фразеологических единиц и фразеологический анализ: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.– М.:1982. – 18 с.
9. Комлев Н.Г. О культурном компоненте лексического значения / Н.Г. Комлев // Вестн. МГУ. Филология, 1966.
10. Мансур Мохаммед Хассан Саммани. Фразеологизмы-эвфемизмы русского языка на фоне арабского: лингвокультурологический аспект (тематическая группа “социальные пороки”). дисс. ... канд. филол. наук. Санкт-Петербург, 2020.- С.135.
11. Огольцев В.М. Семантизация культурного компонента языковой единицы в учебном словаре устойчивых сравнений / В.М. Огольцев // Словари и культуроведение. М. [б. и.], 1982.
12. Поливанов Е.Д. Русский язык сегодняшнего дня. – М. –Л., 1928.